



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING MAKTABDA
TA'LIM JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Nodira Yulchiyevna

*Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika
Logopediya 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bor bolalarning kelib chiqishi, tasnifi, ularning maxsus maktablarda o'quv faoliyati va eshitishda nuqsoni bor bolalarning jamiyatda tutgan o'rnini haqida bayon etildi.

Kalit so'zlar: surdopedagogika, adaptatsiya, rehabilitatsiya, korreksiya, kompensatsiya, psixofiziologik, pedagogika

O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti I.K. Karimov 2007 yilni „Ijtimoiy himoya -yili“ deb e'lon qildi. Bu yilning ta'lim tizimiga tegishli jihatlari ko'p. „Ijtimoiy himoya“ davlat dasturida aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, jamiyatimizga ahillik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga, xususan nogironligi bo'lgan va alohida yordamga muhtoj bolalarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilgan. Ushbu ishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Maxsus pedagogika- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim -tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Uning maqsadi- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va rehabilitatsiyasini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha ertaroq tashxis qo'yib bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Bola rivojlanishidagi nuqsonlar turli xil bo'lib, ba'zilar batamom bartaraf etiladi, ba'zilar bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltirish usullari belgilanadi. Maxsus pedagogika amaliyotida eshitish qobiliyatida muammosi bo'lgan bolalar imo- ishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakatibilan anglatadigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi „Talim to'g'risida“gi qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor alohida yordamga muhtoj bolalar mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadir.

Mahsus pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan surdopedagogika mustaqil tarmoq sifatida ajralib chiqdi. Surdopedagogika - lotincha „surdus“ so'zidan olingan bo'lib „karlik“ degan ma'noni anglatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim-tarbiyasi masalalari hamda muammolari bilan shug'ullanuvchi fandır.

Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus maktabda til o'qitishni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzini shakllantirish ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish va takomillashtirish, eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, o'z bitiruvchilarining ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish; o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish; bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash; respublika bo'yicha tibbiyot muammolarini o'rganishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni eshitish darajasiga ko'ra guruhlarga tasniflash va ushbu tasnif asosida maxsus ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish ijobiy samara beradi.

Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishiga qarab ajratgan:

- yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar;
- unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar;
- umuman eshitishda nuqsoni bo'lganlar.

Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lgan bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomondan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo'lgan o'zlashtiruvchanliklari kuzatiladi. Bunday hol esa o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni aqliy rivojlanishi bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tasnifini ilmiy tushuntirish zarurati shu tariqa vujudga keldi.

L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishini o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi:

- kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyatini tekshirishni tizimlashtirish boshlangich urinishidan, toki amaliyotda eshitishni o'lchagich uskunasi kamerton to'plamidan foydalanishni amaliyotda qo'llash;
- kamertondan to audiometrgacha bo'lgan davr;
- hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audio1metr.

Har bir davrga eshitish holati uchun baholash mezonlari L.V.Neyman tomonidan ishlab chiqildi. Natijada bolalarning eshitish funksiyasi hajmini bilish uchun mo'ljallangan uskunalar rivojlantirildi va yangilandi, kar va zaif eshituvchilarning eshitish qobiliyati holatini yana ham to'liq tushunchasi, bolalik davrida eshitish qobiliyati buzilishining yangi tasnifi berildi. Eshitish funksiyasining qanchalik shikastlanganligini aniqlash uchun u tomonidan karlar va zaif eshituvchilarning eshitish qobiliyatini tonal audiometriya va nutq orqali tekshirish ishlari olib borildi. L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi:

1-guruhda eng nuqsonli bo'lgan chastotalarni qabul qiladiganlar - 125-250 Gs.

Bu bolalar tovushlarning birortasini ham ajrata olmaydilar, faqat quloq oldida baland ovozni eshitadilar (baqiriq, poyezd signali).





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

2-guruh 125-250-500 Gs chastotalarni qabul qiladi.

Bu bolalar faqatgina eshitibgina qolmay, o va u unlilarini ajratadilar. Yaqin masofada atrof-muhitdagi tovushni eshitadilar.

3-guruh nuqsonli bo'lgan va o 'rtacha 125-250-500-1000 Gs.

chastotalarni qabul qiladi bu guruh bolalari quloq oldida so'zlashuv balandligidagi ovozlarga e'tibor beradilar, 3-4 unlilarni anglaydilar, ularning ko'pchiligi ba'zi tanish so'zlarni anglashadi.

4-guruh 125—2000 Gs. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar quloq oldida va uzoq bo'lmagan masofadagi gaplarni eshitadilar. Tanish gaplar va so'zlarni, unli va undoshlarni ajratadilar eshitish kamchiligidagi nutqiy rivojlanishlarning darajasi va xarakteri bir qator sabablar asosida yuzaga keladi. R.M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining quyidagi to'rt omil bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan. Zaif eshituvchi bolalarni eshitish chastotasi hajmiga qarab kar bolalarnikidek guruhlash to'g'ri kelmaydi. Chunki ko'pchilik zaif eshituvchilar keng diapazondagi 4000 Gs va yuqori chastotani qabul qiladilar. Har bir guruh zaif eshituvchilar tomonidan ayrim gaplarni eshitish imkoniyatlari bo'yicha belgilanadi.

1 -darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 50 dB dan oshmaydi. Ularning chastotalarni qabul qilishi 125-8000 Gs atrofida 1 m dan ortiqroq masofada so'zlar tovush balandligida gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish mumkin.

3-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70 dB gacha. 1 m dan kamroq masofada so'zli tovush balandligidagi gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish birmuncha qiyinroq. 3-guruh tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70 dB dan yuqori. So'z tovushlari balandligida gaplarni ajratish quloq oldida ham qiyinlashadi; muloqot qilish faqat baland tovushda quloq yaqinida amalga oshiriladi. Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq jarayonining qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi 15-20 dB da hosil bo'ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o'rtasidagi taxmuniy chegara deb qabul qilishni taklif etadi.

Zaif eshituvchilar bilan karlar o'rtasidagi taxminiy chegara esa 80 dB dir. Yuqoridagi tasniflash asosida bolalar maxsus muassasalarga tabaqalashtirilgan holda o'qitiladi. Eshitishida

nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun maxsus muassasalar tashkil qilingan. Maxsus ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablarida ta'lim maxsus o'quv reja va dasturlar asosida amalga oshiriladi. Sinf va tarbiya guruhlari 10-12 nafar, murakkab nuqsonli bolalar uchun 5-7 kishidan iborat bo'ladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan va nutqi to'liq shakllanmagan bolalar uchun ikki bo'lim o'qish muddati 11 yil. Har ikki bo'limda o'quvchilar ommaviy to'liq o'rta maktab hajmida ma'lumot va dastlabki kasb-hunar tayyorgarligini oladilar. Ta'lim mazmuni o'quv rejasi o'quv dasturlari va dasrliklarida yoritilgan. O'quv reja davlat tomonidan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tasdiqlangan xujjat bo'lib, asosiy o'quv fanlari belgilanadi. O'quv rejasini tuzishda kar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy va nutqining rivojlanish darajasi e'tiborga olinadi. Maxsus maktablarda o'quv mashg'ulotlari dars shaklida olib boriladi. Dars shaklini qo'llash uchun qo'yilgan barcha talablar o'quv jarayoni uchun zarur xisoblanadi. Har bir dars bolalarning bilimlarini rivojlantiradi, yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Zaif eshituvchilarning maktabi boshlang'ich sinflarda eshituv qobiliyati va talaffuzni rivojlantirish ustida olib boriladigan yakka mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsus maktab o'quvchilarini uy vazifalarini bajarishlari nafaqat dars materialini mustahkamlashda maqsad qilib oladi, balki nutqiy amaliyotni kengaytirish uchun ekskursiyalar, qo'shimcha darslar barchasi muloqotga o'rgatsa, ikkinchi tomondan nutqni rivojlantirish, mustahkamlashnino'z ichiga oladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar olib boriladigan ekskursiya o'zining qator xususiyatlariga ega. Ekskursiya davomida pedagog ekskursiyaning maqsadi, yo'nalish bilan tanishuv yangi atamalar bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan lug'at ishi, qatnashuvchilarning mustaqil ishlashlari uchun kerak bo'lgan yakka va jamoa mashg'ulotlarini tashkil qilishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalar faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi va tarbiyachi zaif eshituvchilarda og'zaki va yozma mustaqil ishlar olib boradi. Boshlang'ich bosqichlarda bu masalani hal qilishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Eng katta talablar maxsus maktablarda o'qituvchi va tarbiyachining nutqiga qo'yiladi.

Ularning nutqi deyarli baland, intonatsiyasi saqlanib pauzalar bilan ajratilgan bo'lishi shart. Bunda barcha fikriy vahissiy ifoda vositalari qo'llanilgan bo'lishi shart. O'qituvchining yaxshi tushunarli bo'lishi uchun unda nutqdan tashqari komponentlarning yaxshi qo'llanilishi talab etiladi: yuzning mimika ifodasi va tabiiy imo-ishoralar. Barcha mashg'ulotlarida o'qituvchi muloqotning og'zaki shakllari bilan birga yozma va daktil shakllarini qo'llaydi. Bular talaffuz xatolarini korrektsiyalash, yangi leksikani kiritish, gramatik xatolarni tuzatish uchun qo'llaniladi.

Xulosa: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularga boy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand bo'lish imkoniyatlarini yaratish, shu asosda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola shahsini har tomonlama kamol toptirish, to'g'ri berilgan tarbiya orqali mmmavjud nuqsonning salbiy oqibatlarini yengillashtirib, xalq, vatan, jamiyat uchun kerakli inson sifatida tarbiyalash, har bir surdopedagog va tarbiyachining muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsus psixologiya Nashr- Toshkent 2012.
2. Maxsus pedagogika Toshkent -2014.
3. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari D. R. Madazizova.
4. Nogiron bolalarni tarbiyalashda oila va maxsus muassasa hamkorligini taminlashning ilmiy-metodik asoslari L. SH. Nurmuhammedova.

